

# THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNCHILIKNI KODIFIKATSIYALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI.

*Choriyev Ulug'bek Rustamovich*

*Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*e-mail: Ulugbek Choriyev Rustamovich@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiyalashtirish jarayoni, uning huquqiy asoslari va amaliy bosqichlari tahlil qilinadi. Muallif Prezident farmonlari, qonunlar va hukumat qarorlariga asoslanib, kodifikatsiyaning davlat siyosatidagi o'rni va ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, Saylov kodeksi, Budjet kodeksi kabi hujjatlar misolida kodifikatsiyaning amalda qanday amalga oshirilgani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada kodifikatsiya jarayonida mavjud muammolar, ularni hal etish yo'llari va xorijiy tajriba, xususan, Germaniya tajribasi asosida qiyosiy tahlil ham keltirilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ushbu jarayonga tatbiq etilishi zarurligi alohida ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** kodifikatsiya, qonunchilik, normativ-huquqiy hujjat, tizimlashtirish, unifikatsiya.

### STAGES OF CODIFYING THE LEGISLATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Choriyev Ulug'bek Rustamovich*

*Tashkent State University of Law*

*Faculty of Public Law, 2nd-year student of the "State-Legal Activity" program*

*E-mail: Ulugbek Choriyev Rustamovich@gmail.com*

### ABSTRACT

This article analyzes the process of codifying normative legal documents in the Republic of Uzbekistan, focusing on its legal foundations and practical stages. The author, based on presidential decrees, laws, and government resolutions, explores the role and importance of codification in state policy. The article demonstrates how codification has been implemented in practice, using examples such as the Electoral Code and the Budget Code. It also examines the challenges currently faced in the codification process, offers potential solutions, and presents a comparative analysis of international experience, particularly that of Germany. Special attention is given to the necessity of integrating artificial intelligence technologies into this process.

**Keywords:** codification, legislation, normative legal document, systematization, unification.

### ЭТАПЫ КОДИФИКАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Чорияев Улугбек Рустамович*

*Ташкентский государственный юридический университет*

*Факультет публичного права, студент 2 курса по направлению «Государственно-правовая деятельность»*

*E-mail: Ulugbek Choriyev Rustamovich@gmail.com*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется процесс кодификации нормативно-правовых документов в Республике Узбекистан, с акцентом на его правовые основы и практические этапы. Автор, опираясь на указы Президента, законы и постановления Правительства, исследует роль и значение кодификации в государственной политике. В статье также показано, как кодификация реализуется на практике на примере таких документов, как Избирательный кодекс и Бюджетный кодекс. Рассматриваются существующие проблемы в процессе кодификации, предлагаются возможные решения, а также проводится сравнительный анализ международного опыта, в частности — опыта Германии. Особое внимание уделяется необходимости интеграции технологий искусственного интеллекта в данный процесс.

**Ключевые слова:** кодификация, законодательство, нормативно-правовой документ, систематизация, унификация.

### KIRISH

Huquqiy davlat qurishda qonunchilikni tizimli va tartibli holga keltirish — muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi ham keyingi yillarda qonunchilikni tizimlashtirish va ayniqsa kodifikatsiyalashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Buning huquqiy asosi sifatida Prezident farmonlari, qonunlar va me‘yoriy hujjatlarda aniq vazifalar belgilab berilgan.

Kodifikatsiya — bu normativ-huquqiy hujjatlarni yagona hujjatga birlashtirish orqali ularni soddalashtirish, takrorlanishlardan xalos etish, qo‘llashda qulaylik yaratish maqsadida amalga oshiriladigan tizimlashtirish shaklidir. O‘zbekiston huquqiy tizimida Saylov kodeksi, Budjet kodeksi kabi yirik kodekslarning qabul qilinishi kodifikatsiya borasida muhim qadamlar bo‘ldi. Shu bilan birga, ekologiya, axborot va bank huquqi kabi sohalarda kodifikatsiyaga bo‘lgan ehtiyojning kuchayotgani amaliyotda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur maqolada aynan O‘zbekistonda kodifikatsiyalashtirish qanday huquqiy asosda va qanday tartibda amalga oshirilishi, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xorijiy, xususan, Germaniya tajribasi bilan qiyosiy yondashuv orqali takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida kodifikatsiyani amalga oshirish protsesslarini tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu jarayondagi mavjud ehtiyot va muammolarni tahlil qilish asnosida ularga oid turli yechimlarni analiz qilish va shuningdek ularga qo‘shimcha tarzda muqobil huquqiy va tashkiliy yechimlarni taklif qilishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo‘llagan.

### MUHOKAMA VA TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiya qilish jarayoniga tobora e‘tibor kuchayib bormoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5997-sonli farmonida ham barcha sohalarda qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish, qabul qilinganiga ko‘p vaqt bo‘lgan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarga uyg‘unlashtirish vazifasini qo‘ygani ham bejizga emas [1]. Shuningdek, Prezidentning “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 5505 sonli farmonida ham qonunchilikni tizimlashtirish masalasiga, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni

kodifikatsiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan [2]. Shuningdek, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonunning 27-moddasi 2-qismiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasini, shu jumladan zarur bo'lgan normalarni bitta normativ-huquqiy hujjatda aks ettirgan hamda tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normalarni bekor qilgan holda, qonunchilikni kodifikatsiya qilish imkoniyati mavjudligi nuqtai nazaridan huquqiy ekspertizasini o'tkazadi [3].

Xo'sh, o'zi kodifikatsiya qanday amalga oshiriladi? Qanday bosqichlar mavjud? Keling, shu masalani yoritib o'tamiz. O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiya qilish bu bo'yicha alohida qonun qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlar "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida" gi qonun bilan tartibga solinadi. Ayni qonun 7-moddasi 1-qismi 7-bandida qonunchilikni kodifikatsiyalash ishlarini amalga oshirish Adliya vazirligining vakolati sifatida belgilangan [4]. Bundan bilishimiz mumkinki, davlatimizda Adliya vazirligi qonunchilikni kodifikatsiyalash ishlarini amalga oshiradi. Adliya vazirligi kodifikatsiyalash ishlarini amalga oshirish natijalari bo'yicha qonun loyihasi tayyorlashi va Vazirlar Mahkamasiga o'z tashabbusi bilan yoki Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan kiritishi mumkin. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan qonunchilik tashabbusi subyekti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi kodifikatsiya bo'yicha qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritadi. Shundan keyin ushbu qonun loyihasi bo'yicha standart qonun ijodkorligi protsessi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ya'ni qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqiladi, agar ma'qullansa, ma'qullangan qonun Senatga yuboriladi, Senatdan keyin Prezidentga yuborilib, qonun promulgatsiyasi amalga oshiriladi va shu bilan ushbu qonun kuchga kiradi. Bunga yaqqo misol sifatida Saylov kodeksi qabul qilinishini olish mumkin. Saylov kodeksi qabul qilingunga qadar saylov masalasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar soni bir qadar ko'p, ammo deyarli har bir normativ-huquqiy hujjatda bir xil prinsiplar, mazmunan bir xil normalar qayta-qayta takrorlanishi kuzatilgan. Ya'ni ushbu kodeks qabul qilinishiga amaliyotda ehtiyoj bor edi va ana shu ehtiyojni qondirish uchun 2019-yilning 25-iyun sanasida "O'zbekiston respublikasining saylov kodeksini tasdiqlash to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Bu qonun qabul qilinish munosabati bilan esa "O'zbekiston Respublikasi Prezident saylovi to'g'risida" gi qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga saylov to'g'risida" gi qonun va "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida" gi turli qonunlar o'z kuchini yo'qotgan deb topildi [5]. Bunda O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasiga kiradigan bo'lsak, Saylov kodeksining kuchga kirish sanasi va ushbu qonunlarning o'z kuchini yo'qotgan sanasi bir xil – 26.06.2019. Ya'ni bu kodifikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Yana bir boshqa misol, 2014-yil 1-yanvarda Budget kodeksi kuchga kirishi bilan bir paytda O' RQ 361-sonli Qonun asosida "Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida" gi qonun va "Budget tizimi to'g'risida" gi qonunlar o'z kuchini yo'qotgan [6].

Bizningcha, davlatimizda kodifikatsiya masalasiga oid ayrim masalalarni chuqur izlanish orqali ko'rib chiqish va ularga oid zaruriy tavsiya-yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu muammolar kodifikatsiya qilingan hujjatning o'ziga xos xususiyatlari va amaliy muammolar bilan bog'liq. Birinchi muammo sifatida hozirda kodekslarga tez-tez o'zgartirish kiritilayotganini ko'rishimiz mumkin. Albatta hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda buni davr taqozosi sifatida keltirish mumkin, biroq kodekslarga o'zgartirish kiritilayotgan uzoqroq shtativni mo'ljallab qabul qilinishini ma'qullaymiz. Chunki bu kodifikatsiya qilingan hujjatning ayrim xususiyatlariga zid kelishi, qolaversa, ijtimoiy munosabatlarni barqaror tartibga solishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY****VOLUME-5, ISSUE-7**

Bu bo'yicha Germaniya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, ularda mavjud kodekslarga o'zgartirishlar uzoroq muddatdagi munosabatlarni tartibga solish maqsadi yaqqol sezilib turadi. Oddiy bir misol sifatida Germaniya Fuqarolik kodeksini olaylik. Germaniya Fuqarolik kodeksi 1900-yil 1-yanvarda qabul qilingan. Shundan so'ng, 2002-yilda ushbu kodeksga katta o'zgartirishlar kiritildi, bunda kodeksga Majburiyat huquqiga oid normalar qo'shilgani va boshqa masalalarda reformatsiya amalga oshirildi. Bundan keyingi o'zgarish esa 2022-yilda amalga oshirildi [7]. Yoki boshqa bir dolzarb muammolardan biri ayrim masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar haddan tashqari ko'payib bormoqda, biroq ularning kodifikatsiyalanish jarayoni juda sekin kechmoqda. Bunga misol sifatida oddiygina ekologiya huquqini olish mumkin. O'zbekiston qonunchilik hujjatlari milliy bazasida ekologiya sohasida normativ-huquqiy hujjatlar nihoyatda ko'p, bu normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiya qilishga ehtiyoj ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, hali-hamon ekologiya kodeksi qabul qilingani yo'q. Shuningdek, bank huquqida va axborot sohasida ham kodifikatsiya qilishga ehtiyoj borligini ko'ramiz, chunki bu sohalarda ham anchagina normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 60-sonli farmonida Axborot kodeksi, O'rmon kodeksi kabi kodekslar loyihasi ishlab chiqilishi belgilangan [8]. Ushbu kodifikatsiyalangan hujjatlarning loyihasi allaqachon "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokama portali"ga chiqarilgan va muhokama jarayonlari yakunlangan. Bundan tashqari Suv kodeksi ham ayni portalda muhokama qilinib, muhokama jarayonlari to'la yakunlangan. Birgina Axborot kodeksi loyihasining o'zida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun; "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun; "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonun; "Bolalarni ularni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun; "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi to'g'risida"gi qonun; "Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi qonun; "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun; "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan [9]. O'ylaymizki, shu kabi unifikatsion tizimlashtirishlar orqali normativ-huquqiy hujjatlarimiz ancha tartibli holatda kelib, amaliyotda ko'plab muammolar oldi olinadi. Biroq ushbu jarayonlarning ham tezroq, ham samaraliroq bo'lishini ta'minlash olimlar tomonidan chuqur izlanishlar qilinishi talab qilinadi va bu albatta amalga oshirilishi kerak degan fikrdamiz. Vanihoyat, yana takomillashtirishi zarur masala sifatida kodifikatsiya qilingan hujjatlarga boshqa yangi qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari zid bo'lib qolmasligi yoki bir masalani qayta tartibga solib takrorlanishlarga yo'l qo'ymasligi uchun sun'iy intellektni integratsiya qilinish zaruriyatini keltirib o'tishimiz mumkin. Hozir sun'iy intellekt deyarli barcha sohalarga kirib kelmoqda, o'ylaymizki, kodifikatsiya qilingan hujjatlarning nazorati masalasida ham buni amaliyotga joriy qilishimiz orqali ko'plab muammolarga yechim topiladi.

**XULOSA**

O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni kodifikatsiyalash bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonni yanada takomillashtirish va tizimlashtirish o'rinlidir. Ayrim sohalarda, xususan ekologiya, bank va axborot huquqida kodifikatsiya jarayonlari nisbatan sekin kechmoqda.

Shuningdek, kodekslarga tez-tez o'zgartirish kiritilishi ularning barqarorligi va amaliy ahamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muallif tomonidan yuqoridagi muammolar yuzasidan quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, kodekslar uzoq muddatga mo'ljallangan, izchil va puxta loyihalangan bo'lishi lozim. Bunda

Germaniya tajribasini o'rganib chiqish taklif etiladi. Ikkinchidan, sun'iy intellektni kodifikatsiya jarayonlarini amalga oshirishga integratsiya qilish orqali kamaytirish mumkin. Sun'iy intellekt takrorlanuvchi normalarni aniqlash, ziddiyatlarni aniqlash va ularga muqobil yechim berish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://lex.uz/uz/docs/-4820060> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni;
2. <https://lex.uz/ru/docs/-3858817> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentning “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi 5505 sonli farmoni;
3. <https://lex.uz/docs/-5378966> – O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida” gi qonuni;
4. <https://lex.uz/docs/-1069260> – “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida” gi qonun;
5. <https://lex.uz/docs/-4386819> – “O'zbekiston respublikasining saylov kodeksini tasdiqlash to'g'risida” gi qonun;
6. <https://lex.uz/docs/-2304017> – “O'zbekiston respublikasining budjet kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida” gi qonun;
7. [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_bgb/englisch\\_bgb.html](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html) – Germaniya Fuqarolik kodeksi;
8. <https://lex.uz/docs/-5841063> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi farmoni;
9. <https://regulation.gov.uz/uz/d/72848> - Axborot kodeksi loyihasi.
10. Allayevna, A. M. (2024). THE ROLE OF UZBEK FOLKLORE GENRES IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION. *International Journal of Advance Scientific Research*, 4(03), 226-231.
11. Allayevna, A. M. (2023). UZBEK PEOPLE ORAL CREATIVITY TOOLS UZBEK PEOPLE IN PEDAGOGY HELD PLACE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 96-98.
12. Allayevna, A. M. (2024, December). IMPORTANCE OF USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON FOLKLORE. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 5-9)
13. Abduraximova Muxabbat Allayevna (2024). MILLIY TARBIYA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING ASOSI SIFATIDA. *Research Focus*, 3 (11), 51-54. doi: 10.5281/zenodo.14317451